

O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINING O'QITILISHI VA MUAMMOLARI

Nazirjon Qosimjonov Hoshimjon o'g'li

Namangan davlat universiteti magistranti

El. pochta manzili: nazirjon.painter@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chizma haqida umumiyl tushuncha, O'zbekistonning umumta'lim maktablarida chizmachilik fanining o'qitilishi, chizmachilik fanining maktablarda o'qitish jarayonida paydo bo'layotgan muammolar xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *chizma, grafik aloqa, texnika tili, standart, termin, dastur, maktab, dars.*

Абстрактный: *В данной статье рассказывается об общем понимании черчения, преподавании черчения в общеобразовательных школах Узбекистана, проблемах, возникающих в процессе обучения черчению в школах.*

Ключевые слова: *рисование, изобразительная коммуникация, технический язык, стандарт, термин, программа, школа, урок.*

Abstract: *This article talks about the general understanding of drawing, the teaching of drawing in general education schools of Uzbekistan, the problems that arise in the process of teaching drawing in schools.*

Key words: *drawing, graphic communication, technical language, standard, term, program, school, lesson.*

Chizma bu - maxsus chizma asboblari yordamida ma'lum qonun va qoidalar asosida bajarilgan tasvir bo'lib, u bizga buyum haqida, ya'ni uning ichki va tashqi tuzilishlari, o'lchamlari bo'yicha to'la ma'lumot beradigan hujjatdir. Hozirgi zamon ishlab chiqarishida chizma alohida o'rinn tutadi. Chunki har kuni zavodlarimizda turli stanoklar, mashina va mexanizmlar, uy-ro'zg'or buyumlari va ko'plab boshqa narsalar tayyorlanadi. Ularni esa chizmalarsiz yasab bo'lmaydi. Chizmalarga qarab mashina va asboblarning alohida detallari tayyorlanadi, tayyor detallardan murakkab mexanizmlar yig'iladi.⁶¹

Insoniyat yaralibdiki muloqot qilishga moyil bo'ladi. Muloqotning eng ommabop turi, til tanlamaydigan, tarjimonsiz ham tushuniladigan, tushuntiriladigan turi chizmalardir! Insonlar bir-biri bilan aloqada bo'lish uchun turli xil muloqot vositalaridan foydalanadilar. Chizma grafik aloqaning eng qadimiy va keng tarqalgan turi hisoblanadi. Chizmalar texnika sohasida ishlovchi barcha muhandislar, qurilish sohasida ishlovchi mutaxassislar, texnik xodimlar va ishchilar uchun yagona "texnika tili" hisoblanadi. Arxitektor va muhandislar o'z ijodiy fikrlarini faqat chizmalar orqali to'liq bayon eta oladilar. Chizmalar yordamida turli xil yirik binolar, mashinalar,

⁶¹ Rahmonov I. va boshq. Chizmachilik. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. «Voris-nashriyot», –T.: 2016. 456-b.

samolyotlar, mashina qismlari, tibbiyot asboblari ishlab chiqariladi. Chizmalar nafaqat texnika sohasida, balki odamlar hayot kechirishi uchun muhim bo'lgan sohalarda ham yo'ldosh hisoblanadi. Masalan, chizmalarga qarab kiyim-bosh, poyabzallar tikiladi, turli mebellar yasaladi, temir yo'llar yoki avtomobil yo'llari quriladi.

Chizmalarsiz biror buyumni yoki uning detallarini, qurilish ishlarini aniq bajarib bo'lmaydi. Chizmachilik fani texnikaviy chizmalarni to'g'ri tuzish usullarini o'rgatadi. Chizmachilik fan va texnikaning «texnikaviy tili» hisoblanib, u barcha konstrukturlar, injener-texnik xodimlar, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi sohasida ishlovchi mutaxassis va ishchilar uchun yagona internatsional tildir.⁶²

Chizmachilik fanining asosiy maqsadi uncha sodda bo'lмаган chizmalarni chizish, ularni tahlil qilish hamda o'z fikrini grafik usulda namoyon qilish, kompyuter yordamida oddiy chizmalarni bajarishdan iborat.

Dunyo texnika sohasida taraqqiy etib borayotgan bir vaqtida texnik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda chizmachilik fani muhim vazifani bajaradi. Ayniqsa, maktab yoshidagi endi o'zining kelajagini qurishni boshlagan yoshlarni texnika sohasi bilan tanishtirishda, ularni fazoviy tasavvurini boyitishda yuksak ahamiyatga ega. Shunday ekan, maktab yoshidagi o'quvchilarga chizmachilik fanini tanishtirish muhim sanaladi. Ularga turli mexanizmlarni, moshinalarni, turli xil qurilmalarni yashash uchun birinchi navbatda ularning chizmasi chizib olinishi zarur ekanligini, chizmalarsiz biror bir buyumni yashashning iloji yo'qligini tushuntirish lozim. Maktab yoshidagi o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda, ularga beriladigan bilim sifatini oshirishda maktab chizmachilik fanining ahamiyati katta. Ammo, bugungi kunda mamlakatimizda chizmachilik faniga bo'lgan e'tibor biroz pasaygandek xuddi. Umumta'lim maktablarida chizmachilik fani uchun ajratilgan dars soatlarining kamligi ya'ni haftasiga 1 soatdan o'qitilishi hamda faqatgina 8–9-sinflarga o'qitilishi bunga yaqqol misol.

O'zbekistonda qabul qilingan standartlarga asosan chizmachilik fani umumta'lim maktablarida 8–9-sinflarda haftasiga 1 soatdan o'qitiladi. Oldingi 9+3 o'qitish tizimida 8–9-sinflarda haftasiga bir soatdan o'qitilgan bo'lsa, hozirgi 11 yillik maktab tizimida ham bu holat o'zgarishsiz qoldi.

Dastur mazmunida chizmachilik kursining asosiy bo'limlari bo'yicha boshlang'ich bilimlarni berish ko'zda tutilgan. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanida oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan chizmachilik kursi dasturining soddalashtirilgan shaklidan foydalilaniladi. Hozirgi vaqtida o'qitilayotgan chizmachilik fani deyarli barcha chizmachilik bo'limlarini o'z ichiga olgan bo'lib, soddalashtirilgan holda o'qitiladi.

Har yili texnika sohasidagi oliy bilim yurtlarida o'qish istagida yurgan talabalar soni ortib bormoqda. Biroq, ulardag'i boshlang'ich tushunchaning yo'qligi ularni oliy o'quv yurti dasturlarini o'rganishda biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Texnik fanlar

⁶² S. S. Saydaliyev. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi o'quv qollanma –Toshkent: TAQI, 2017. 339 b.

o'qitiladigan oliy o'quv yurtlarida talabalarni moslashtirish muammosi ham shundan kelib chiqadi. Chizmachilik fani nafaqat texnika sohasidagi oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, balki u muloqot uchun kerakli grafik til hisoblanadi. U faqatgina texnika sohasida ishlovchi insonlar uchun emas balki boshqa sohalarda ham ishlovchi insonlar uchun ham kerakli fan hisoblanadi.

Chizmalarni o'qish tartibini, chizmalarni chizish qoidalarini bilmay turib, texnika sohasida taraqqiy topish qiyin. Bu albatta mamlakatning texnika sohasiga ham sezilarli darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Shunga qaramay yurtimizda chizmachilik faniga bo'lgan e'tibor negativ tomonga o'zgarib bormoqda. Chizma bir korxona (zavod) dan ikkinchi korxonaga, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga yuboriladi. Chizmani o'qiy oladigan har qanday ixtisosdagi kishi ularni tushunadi, ularga qarab eng murakkab mashinaning tuzilishini o'rghanadi. Shuning uchun texnika sohasida savodli bo'lishni istagan har qanday shaxs chizmachilikni yaxshi bilishi lozim.⁶³

Chizmachilik fani boshqa fanlardan farqli o'laroq bunda amaliy bajariladigan grafik ishlarning bajarilishidir. Bu grafik ishlarni bajarish o'ziga yarasha vaqt talab qiladi. Mamlakatimizning umumta'limga muktablaridagi chizmachilik faniga ajatilgan vaqt soatlari esa bunga yetarli emas desak bo'ladi va buni isbotini amalda ko'rib bormoqdamiz.

Yurtimizdagagi ta'limga tizimida kundan-kunga yangi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ko'pgina darsliklar zamonaviy ko'rinishga keltirilishi (chizmachilik darsligidan tashqari), darslarning sifatiga e'tibor berilishi, ilm dargohlarida bilim olishga ko'maklashuvchi zamonaviy jihozlar, elektron doskalar, zamonaviy ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishi va boshqa ko'plab o'zgarishlarni misol qilish mumkin. Biroq, ba'zi bir muammolar ham yo'q emas albatta. Xususan, bunday jihozlar bilan barcha maktablarni qamrab olish qiyin. Shuning uchun ham ko'plab umumta'limga muktablarida hali hanuz oddiy bo'r bilan yozishga moslashgan doskalarni uchratamiz.

Umumta'limga muktablaridagi chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashiga to'g'ri keladi. Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rghanadi. Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi bilishi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqt chegaralangan. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini ko'rsatish, mavzuning qiyin

⁶³ Ashirboyev A. Chizmachilik: Kasb-hunar kollejlari (tikuvchilik, to'qish, pazandachilik mutaxassisliklari) uchun oquv qo'l.)/A. Ashirboyev; Mas'ul muharrir I.Raxmonov; O'zR oliy va o'rta maxsusu ta'limgazasi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi.—T.: Yangi nashr, 2008,— 193 b.

joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq.⁶⁴

Endi tasavvur qiling, 45 daqiqlik dars davomida 25–35 nafar o'quvchiga yangi mavzuni tushuntirish, amaliy grafik ish bajartirish, ba'zi bir o'zlashtirishi nisbatan pasroq bo'lgan o'quvchilar bilan individual ishslash lozim. Biroq, o'qituvchi 45 daqiqa vaqtning barchasini bu ishlarga sarflay olmaydi. Chunki o'qituvchi 45 daqiqa vaqt davomida tashkiliy ishlar: o'quvchilar bilan salomlashish, sinfning tozaligini ko'zdan kechirish, sinf davomatini aniqlash va davomatni sinf jurnaliga belgilab qo'yishi (o'rtacha 3–4 daqiqa); o'tilgan mavzuni takrorlashi (asosan savol-javob usuli orqali, o'rtacha 6–8 daqiqa); keyin esa yangi mavzuni bayon qilishi kerak. Bunga esa o'rtacha (an'anaviy dars o'tish tizimi bo'yicha) 14-15 daqiqa vaqt ajratilgan bo'ladi. *Maktab dasturidagi mavzular esa buncha vaqt oralig'ida tushuntirish uchun nisbatan murakkablik qiladi, yoki ko'proq vaqt talab qiladi. Bu esa o'quvchilarning darsdan zerikishiga sabab bo'ladi. Shundoq ham chizmachilik darsida ko'plab o'quvchilar eslab qolishi uchun nisbatan murakkabroq bo'lgan termin va atamalar ko'p qo'llaniladi.*

Yangi dars bayon qilingandan so'ng uni mustahkamlash uchun o'rtacha 12–13 daqiqa vaqt kerak bo'ladi. Bu hali hammasi emas, o'qituvchi dars oxirida dars jarayonida faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirib, ularni baholashi va baholarini sinf jurnaliga qayd etib qo'yishi lozim. Bu ham o'ziga yarasha ma'lum vaqt talab qiladi. Chizmachilik o'qituvchisi amaliy grafik ish bajartirishi uchun yana ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi. Maktablarda darslar uchun ajratilgan vaqt esa faqatgina 45 daqiqa xolos.

Xo'sh, unda o'quvchilar qaysi vaqtida grafik ishlarni bajaradilar?! Agar grafik ishlarni uyga vazifa sifatida berilsa, uni ba'zi bir bilim darajasi yuqoriroq bo'lgan, xalq tili bilan aytganda "a'lochi" o'quvchilar bajara olishi mumkin. Lekin bunday o'quvchilar butun bir sinfning bor-yo'g'i (o'rtacha) 20–30 foizini tashkil qiladi xolos. Shunday ekan o'quvchilar grafik ishlarni o'qituvchi nazorati ostida bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. *Chunki maktab yoshidagi o'quvchilar psixologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular biror ish bajarish jarayonida tushunmasdan to'xtab qolishsa, davom ettirishdan ko'ra bajarmaslikni afzal ko'rishadi.*

O'qituvchi chizmachilik o'qitish jarayonida ko'pincha o'quvchilarga notanish bo'lgan tushuncha va atama (termin)larni ishlatishiga to'g'ri keladi. O'quvchilar chizmachilikni o'rganishlari uchun bu tushunchalarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur bo'ladi. Ikkinchini tomondan eslab qolish kerak bo'lgan notanish atamalarning ko'pligi, nazariy tushunchalarni amaliy grafik faoliyat davomida mag'zini chaqishga zaruriyat paydo bo'lishi o'quvchilarining fanni o'zlashtirishlariga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Lekin o'quvchilar bu tushunchalarni puxta o'zlashtirmsadan chizmachilikni o'rganolmaydilar. Shularni e'tiborga oladigan bo'lsak o'qituvchi oldida chizmachilik fani tushuncha (atama)larining miqdor va sifat muammozi paydo bo'ladi. Chizma

⁶⁴ E. I. Ro'ziyev, A. O. AshIrboev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. —T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet.

terminlari yetarlicha ko‘p bo’lib, ular mavzular bo‘yicha teng taqsimlanmagan va buning iloji ham yo‘q.

O‘zbekiston maktablarida chizmachilik fanini o‘qitishda yana bir muhim omil bu darsliklar hisoblanadi. O‘zbekistonda chizmachilik fan sifatida XX asrning 30-yillaridan o‘qitila boshlangan bo’lsa, bunda Rossiya olimlari hamda u yerda nashr qilingan darsliklarning ahamiyati katta bo’lgan.

Chizmachilik fani umumta’lim maktablarida 2000-yildan boshlab P.Odilov va A.Umronxo‘jaevlar tomonidan tuzilgan dastur bo‘yicha o‘qilib kelinmoqda. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy metodika markazi tomonidan «Chizmachilik o‘qitishni takomillashtirish konsepsiysi» e’lon qilindi. 1995-yilda shu konsepsiya asosan chizmachilik fani «Texnikaviy grafika asoslari» deb yangidan nomlanib, shu nomda dastur hamda darslik chop qilindi va o‘quv jarayoniga kiritildi. 2004-yilda P.Odilov va boshqalar tomonidan umumta’lim maktablarining 8 va 9-sinflari uchun «Chizmachilik» darsligi nashr qilinib, o‘quv jarayoniga kiritildi.

Hozirda umumta’lim maktablarida Ikram Rahmanov, Dilfuza Yuldasheva, Moxidil Abduraxmanova tomonidan yaratilgan “chizmachilik” darsligi o‘quv jarayonida qo’llanilmoqda. Bu darsliklar yillar davomida deyarli o’zgarishlarsiz qo’llanib kelinayotganiga guvoh bo’lmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev A. Chizmachilik: Kasb-hunar kollejlari (tikuvchilik, to’qish, pazandachilik mutaxassisliklari) uchun oquv qo’l.)/A. Ashirboyev; Mas’ul muharrir I.Raxmonov; O’zR oliy va o’rta maxsusu ta’lim vazirligi, O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. —T.: Yangi nashr, 2008,— 193 b.
2. E. I. Ro‘ziyev, A. O. AshIrboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. —T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet.
3. Rahmonov I. va boshq. Chizmachilik. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo’llanma. «Voris-nashriyot», —T.: 2016. 456-b.
4. S. S. Saydaliyev. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi o‘quv qo’llanma –Toshkent: TAQI, 2017. 339 b.
5. Н. Х. Қосимжонов ЗАМОНАВИЙ МЕЪМОРЛИКДА КОМПЮТЕР ГРАФИКАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ АНЪАНАЛАРИ. International scientific-online conference: “INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM” PART 18, 25.05.2022